



LABOR MARKET TRANSFORMATION AND ITS IMPACT ON YOUTH CONSCIOUSNESS: A SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS

Ilkhom Mustafoyevich Rajabov

Head of the Information and Spiritual-Educational Affairs Group, Office Management Department, Central Mining Administration, Joint-Stock Company “Navoi Mining and Metallurgical Company”; Independent Researcher at Bukhara State Pedagogical Institute

Email: ilxom.radjabov@mail.ru

Bukhara, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: labor market, transformation, youth, labor consciousness, creative labor, artificial intelligence, digital economy, competencies, professional identity.

Received: 09.09.26

Accepted: 10.09.26

Published: 11.09.26

Abstract: The article provides a socio-philosophical analysis of how labor-market transformation affects youth consciousness. Transformation is interpreted as the unity of objective changes in technology, employment forms, occupations and competencies, and subjective changes in labor values, professional motivation, identity and expectations about the future. The paper argues that artificial intelligence, automation, platform work and the accelerated renewal of skills create new requirements for young people’s professional agency.

MEHNAT BOZORI TRANSFORMATSIYASI VA UNING YOSHLAR ONGIGA TA’SIRI: IJTIMOY-FALSAFIY TAHLIL

Ilxom Mustafoyevich Rajabov

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” Aksiyadorlik jamiyati Markaziy kon boshqarmasi, Boshqarma Ofis menejer bo‘limi, Axborot va ma’naviyat – ma’rifat guruhi rahbari, BuxDPI mustaqil tadqiqotchisi

Email: ilxom.radjabov@mail.ru

Buxoro, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: mehnat bozori, transformatsiya, yoshlar, mehnat ongi, kreativ mehnat, sun’iy intellekt, raqamli iqtisodiyot, kompetensiya, kasbiy identiklik, qadriyatlar.

Annotatsiya: Maqolada mehnat bozori transformatsiyasining yoshlar ongiga ta’siri ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Transformatsiya obyektiv — texnologiya, bandlik shakllari, kasblar va

kompetensiyalar tizimidagi o'zgarishlar hamda subyektiv — mehnat qadriyatlar, kasbiy motivlar, identiklik va kelajak tasavvurlaridagi o'zgarishlar birligi sifatida talqin etiladi.

ТРАНСФОРМАЦИЯ РЫНКА ТРУДА И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА СОЗНАНИЕ МОЛОДЁЖИ: СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ

Илхом Мустафоевич Раджабов

Руководитель группы информационно-просветительской и духовно-просветительской работы отдела офис-менеджмента Управления Центрального рудоуправления Акционерного общества «Навоийский горно-металлургический комбинат», независимый исследователь Бухарского государственного педагогического института

Email: ilxom.radjabov@mail.ru

Бухара, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: рынок труда, трансформация, молодежь, трудовое сознание, креативный труд, искусственный интеллект, цифровая экономика, компетенции, профессиональная идентичность.

Аннотация: В статье социально-философски анализируется влияние трансформации рынка труда на сознание молодежи. Трансформация рассматривается как единство объективных изменений технологий, занятости, профессий и компетенций и субъективных изменений трудовых ценностей, профессиональной мотивации, идентичности и представлений о будущем.

Kirish. Mehnat bozori jamiyat iqtisodiy tizimining tarkibiy qismi bo'lish bilan birga, insonning ijtimoiy mavqeyi, kasbiy identikligi, hayot strategiyasi, qadriyatlar va kelajak haqidagi tasavvurlari shakllanadigan muhim ijtimoiy makondir. Shu bois undagi o'zgarishlarni faqat talab va taklif, ish haqi, bandlik yoki ishsizlik ko'rsatkichlari bilan izohlash yetarli emas. Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan mehnat bozori transformatsiyasi “inson – mehnat – texnologiya – ijtimoiy institutlar” munosabatlarining sifat jihatidan o'zgarishini ifodalaydi.

Mazkur jarayon ikki o'zaro bog'liq darajada kechadi. Obyektiv transformatsiya iqtisodiyot, texnologiya, bandlik shakllari, kasblar va kompetensiyalar tizimidagi o'zgarishlarni qamrab olsa, subyektiv transformatsiya shaxsning mehnat qadriyatlar, kasbiy motivlari, kelajak haqidagi tasavvurlari va mehnatga munosabatining yangilanishini anglatadi. Ayniqsa, yoshlar ushbu jarayonning eng sezgir guruhidir: ular kasbiy identiklikni shakllantirish bosqichida bo'lish bilan birga yangi texnologiya va bandlik shakllarini tezroq o'zlashtirish imkoniyatiga ega. Shu sababli

yoshlar mehnat bozori transformatsiyasining bir vaqtning o'zida ham obyekt, ham subyekt sifatida namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tadqiqot nazariy-konseptual xarakterga ega bo'lib, unda dialektik, tizimli, aksiologik, komparativ va praksiologik tahlil usullaridan foydalanildi. Dialektik yondashuv texnologik imkoniyat va ijtimoiy xavf, kasbiy erkinlik va shaxsiy mas'uliyat, an'anaviy mehnat qadriyatlar va yangi kreativ kompetensiyalar o'rtasidagi ziddiyatli birlikni ochishga xizmat qildi. Tizimli yondashuv mehnat bozoridagi o'zgarishlarni texnologiya, ta'lim, qadriyat, bandlik va demografik omillarning o'zaro ta'siri sifatida ko'rishga imkon berdi.

Aksiologik tahlil Q. Nazarovning qadriyatlar falsafasiga oid yondashuvi asosida mehnat shakli o'zgarishi bilan mehnat qadriyatlarining qayta talqin qilinishini tushuntirish uchun qo'llandi. A. Erkayevning ma'naviyat praksiologiyasiga oid qarashlari qadriyatning real faoliyatda namoyon bo'lishi masalasini, S. Otamuratovning globallashtirishga oid yondashuvi global kompetensiya va milliy mehnat qadriyatlar nisbatini, N. Shermuxamedovning metodologik qarashlari esa ijod, innovatsiya va ijtimoiy mas'uliyat birligini tahlil qilishga metodologik asos bo'ldi.

Manbaviy baza sifatida D. Bell, A. Toffler, Y. Masuda va A. Giddensning postindustrial, axborotlashgan va refleksiv jamiyat haqidagi asarlari, Xalqaro mehnat tashkiloti va Jahon iqtisodiy forumining 2025-yilgi materiallari hamda O'zbekistonning rasmiy statistik va siyosiy ma'lumotlari olindi. Natijalar empirik so'rov emas, manbalarni konseptual qiyoslash va ijtimoiy-falsafiy umumlashtirish asosida shakllantirildi.

Muhokama. Olingan natijalar mehnat bozori transformatsiyasini texnologik yangilanish bilan cheklab bo'lmashligini ko'rsatadi. Uning markazida mehnat subyektining o'zgarishi turadi. Postindustrial va axborotlashgan jamiyat bilim va axborotning iqtisodiy qiymatini oshirsa, refleksiv zamonaviylik shaxsdan o'z kasbiy biografiyasini muntazam qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Sun'iy intellekt esa kasbning o'zidan ko'ra uning ichki funksiyalarini tezroq o'zgartirib, "bir kasb – bir umr" modelidan "uzluksiz kompetensiya yangilash" modeliga o'tishni tezlashtiradi.

Yoshlar ongida bu jarayon ikki xil oqibat tug'dirishi mumkin. Bir tomondan, kasbiy tanlov, geografik harakatchanlik, masofaviy bandlik va o'zini namoyon qilish imkoniyatlari kengayadi. Ikkinchi tomondan, kasbiy noaniqlik, tez eskiruvchi bilimlar, doimiy raqobat va individual mas'uliyatning ortishi xavotirni kuchaytirishi mumkin. Shuning uchun yoshlarning mehnatga munosabatini faqat moslashuvchanlikka undash bilan cheklash yetarli emas; ularning barqaror qadriyat tayanchi va kasbiy subyektligini rivojlantirish zarur.

Mazkur tahlil asosida kreativ-konstruktiv mehnat munosabatining besh mezonini ajratish mumkin: birinchisi – mehnatni shaxsiy va ijtimoiy qadriyat sifatida anglash; ikkinchisi – yangi

bilimni tez o'zlashtirish va kasbiy funksiyalarni qayta shakllantirishga tayyorlik; uchinchi – texnologiyadan passiv foydalanish emas, undan yangi qiymat yaratish vositasi sifatida foydalanish; to'rtinchisi – kreativ g'oyani ijtimoiy foydali natijaga aylantirish; beshinchisi – innovatsion faoliyatning axloqiy va ijtimoiy oqibatlari uchun mas'uliyatni anglash.

O'zbekiston sharoitida ushbu model global kompetensiya va milliy mehnat qadriyatlarining dialektik birligiga tayanishi kerak. Yoshning raqamli savodxonligi, chet tili, professional mobilligi va kreativligi halollik, mehnatsevarlik, hamkorlik, ustoz-shogirdlik va jamiyatga naf keltirish tamoyillari bilan uyg'unlashgandagina texnologik modernizatsiya inson kapitalining sifat o'sishiga xizmat qiladi.

Natijalar.

1. Postindustrial va axborotlashgan jamiyatda mehnat paradigmasining almashinuvi

D. Bell postindustrial jamiyatga o'tishda iqtisodiyotning markaziy resurslari o'zgarishini ko'rsatadi: industrial jamiyatda ishlab chiqarish va mashina texnologiyasi ustuvor bo'lsa, postindustrial bosqichda nazariy bilim, xizmatlar sektori hamda professional-texnik mutaxassislarning roli kuchayadi [4:14–33; 116–127]. Bu holat mehnatning jismoniy va takrorlanuvchi operatsiyalardan axborotni qayta ishlash, bilim yaratish va murakkab muammolarni hal etishga siljishini anglatadi.

A. Toffler “uchinchi to'lqin” konsepsiyasida ommaviy ishlab chiqarish, standartlashtirish va markazlashuvning moslashuvchan, xilma-xil hamda axborotga asoslangan tizimlarga o'rin bo'shatishini ko'rsatadi [5:25–28; 182–210]. Ushbu siljish yoshlar uchun hayot davomida bitta kasbiy rol bilan cheklanish ehtimolini kamaytiradi. Kasbiy trayektoriyani qayta qurish, yangi vaziyatga moslashish va individual yechim ishlab chiqish qobiliyati mehnat subyekting muhim sifatiga aylanadi.

Y. Masuda axborotlashgan jamiyatda insonning intellektual faoliyatini kengaytiruvchi axborot texnologiyalarini markaziy omil sifatida ko'radi [6:29–33; 65–74]. Bunda bilimning o'zi yetarli emas: axborotni izlash, saralash, tahlil qilish, sintezlash va undan yangi bilim yaratish kompetensiyasi talab etiladi. A. Giddens ta'kidlagan zamonaviylikning refleksivligi esa ijtimoiy amaliyotlarning yangi axborot asosida muntazam qayta ko'rib chiqilishini anglatadi [7:36–45]. Natijada shaxs o'z kasbiy biografiyasini tobora ko'proq mustaqil shakllantiradi; erkinlik kengayishi bilan shaxsiy mas'uliyat ham ortadi.

2. Mehnat qadriyatlarining transformatsiyasi va milliy ijtimoiy-falsafiy yondashuv

Global nazariyalarda bilim, axborot va tarmoqli aloqalarning iqtisodiy qiymati ortishi asoslangan bo'lsa, O'zbekiston sharoitida ushbu jarayonning milliy qadriyatlar, ma'naviy taraqqiyot va shaxsning ijtimoiy faolligi bilan aloqasini hisobga olish zarur. Q. Nazarovning

aksiologik yondashuvi jamiyat transformatsiyasini qadriyatlar tizimidagi o'zgarishlardan ajratib bo'lmashligini ko'rsatadi [8:196]. Mehnat shakli yangilangani sari mehnat qadriyati ham qayta talqin qilinadi.

A. Erkayevning ma'naviyatni real faoliyat bilan bog'liq fenomen sifatida tahlil qilishi [9:456] yoshlarning mehnat madaniyatini tushuntirishda muhimdir. Qadriyat amaliy faoliyatda namoyon bo'lgandagina ijtimoiy mazmun kasb etadi.

S. Otamuratovning globallashtirishga oid yondashuvi [10:352] zamonaviy yoshning ikki tomonlama talabga duch kelayotganini ko'rsatadi: u global kompetent, raqamli texnologiyalardan foydalana oladigan, chet tillarini biladigan va kasbiy mobil bo'lishi bilan birga halollik, mehnatsevarlik, ustoz-shogirdlik, hamkorlik va jamiyatga naf keltirish kabi milliy mehnat qadriyatlarini saqlashi zarur. N. Shermuxamedovanning ijod va innovatsiya metodologiyasiga oid qarashlari [11:455] esa kreativ mehnatning uch tarkibini – mavjud bilimni tanqidiy tahlil qilish, yangi yechim yaratish va uning ijtimoiy oqibatlari uchun mas'uliyatni anglashni – ajratishga imkon beradi.

3. Sun'iy intellekt, avtomatlashtirish va kompetensiyalarning yangilanishi

XXI asr mehnat bozori transformatsiyasining eng keskin omillaridan biri sun'iy intellekt va avtomatlashtirishdir. Avvalgi avtomatlashtirish asosan jismoniy va takroriy operatsiyalarni mashinalarga o'tkazgan bo'lsa, generativ sun'iy intellekt ayrim intellektual, axborot-tahliliy va kreativ vazifalarni ham bajarishga kirishmoqda. Shu sababli masalani "inson mehnatini texnika bilan almashtirish" tarzida emas, inson va texnologiya o'rtasida mehnat funksiyalarining qayta taqsimlanishi sifatida talqin qilish aniqroqdir.

Bu holat yoshlar mehnat ongidagi savolni "qaysi kasb yo'qoladi?"dan "tanlangan kasb ichidagi qaysi funksiyalar o'zgaradi va men qanday yangi kompetensiya egallashim kerak?" shakliga o'zgartiradi. Raqobatbardoshlik mavjud bilimlar hajmidan tashqari yangi bilimni o'zlashtirish tezligi va uni yangi vaziyatda qo'llash qobiliyati bilan belgilanadi. Jahon iqtisodiy forumining 2025-yilgi tahlilida 2030-yilgacha 100 kishilik shartli ishchi kuchining 59 nafari qayta tayyorlash yoki malaka oshirishga ehtiyoj sezishi kutilishi qayd etiladi [12].

4. Platforma bandligi va O'zbekiston mehnat bozorining demografik konteksti

Raqamli transformatsiya mehnatning an'anaviy makon va vaqt chegaralarini ham moslashuvchanlashtirmoqda. Masofaviy, loyiha asosidagi va platforma orqali bajariladigan faoliyat yosh mutaxassisga geografik jihatdan o'z hududida qolgan holda xalqaro buyurtmachi bilan ishlash yoki professional tarmoqqa kirish imkonini beradi. Shu bilan birga, mehnat va dam olish vaqti chegarasining xiralashishi, daromad beqarorligi, algoritmik boshqaruv, ijtimoiy himoya

va doimiy raqobat kabi yangi xavflar yuzaga keladi. XMT raqamli texnologiyalarning mehnat sifatiga ta'sirini baholashda algoritmik boshqaruv masalasiga ham e'tibor qaratadi [13].

O'zbekistonda transformatsiya global texnologik o'zgarishlar bilan bir qatorda demografik tarkib, ta'lim tizimining kengayishi, tadbirkorlik muhiti, xizmatlar sektori va raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bilan kechmoqda. Shu bois mehnat bozorini bandlikning miqdoriy dinamikasi bilangina emas, ishchi kuchining sifat tarkibi, kompetensiyalarga talab, yangi bandlik shakllari va yoshlarning mehnat strategiyalari orqali baholash lozim. Milliy statistika qo'mitasi mehnat resurslari, iqtisodiy faollik, bandlik va ishsizlik ko'rsatkichlarini muntazam kuzatib boradi [1].

2025-yil 1-iyul holatida O'zbekiston doimiy aholisi 37,9 million kishini tashkil etgan va uning 56 foizi mehnatga layoqatli yoshdagi aholi hissasiga to'g'ri kelgan [2]. 2025-yil fevralidagi rasmiy ma'lumotda har yili mehnat bozoriga 600 mingdan ortiq yosh kirib kelayotgani, 2030-yilga borib bu ko'rsatkich 1 million nafarga yetishi prognoz qilingan [3]. Demografik bosim mehnat bozori oldiga bir vaqtning o'zida ikki vazifani qo'yadi: yetarli bandlik imkoniyatlarini yaratish va yoshlarning bilim hamda kompetensiyalarini iqtisodiyotning o'zgarayotgan talablariga moslashtirish. Ikkinchi vazifa aynan kreativ-konstruktiv mehnat munosabatini shakllantirishning strategik ahamiyatini oshiradi.

Xulosa. Mehnat bozori transformatsiyasi obyektiv va subyektiv o'zgarishlarning yaxlit jarayonidir. Texnologiya, kasblar va bandlik shakllaridagi o'zgarishlar yoshlarning mehnat qadriyatlarini, kasbiy identikligi va kelajak strategiyalarini qayta shakllantiradi. Shu ma'noda yoshlar transformatsiyaning faqat ta'sir qabul qiluvchi obyekti emas, yangi mehnat amaliyotlarini yaratadigan faol subyektdir.

Postindustrial va axborotlashgan jamiyat sharoitida bilim, axborot va professional kompetensiyaning qiymati ortadi; sun'iy intellekt davrida esa muhim mezon mavjud bilimlar hajmidan yangi bilimni o'zlashtirish va uni yangicha vaziyatda qo'llash qobiliyatiga siljiydi. Kasbni bir marta tanlash paradigmasi o'rnini kasbiy funksiyalar va kompetensiyalarni uzluksiz yangilash paradigmasi egallamoqda.

Milliy ijtimoiy-falsafiy yondashuv mehnat bozoridagi modernizatsiyani qadriyatlar transformatsiyasidan ajratmaslikni talab qiladi. Kreativlik mehnatsevarlik va mas'uliyatni, raqamli kompetensiya halollik va kasbiy etikani, global mobillik esa milliy ijtimoiy mas'uliyatni inkor etmasligi lozim. Shu bois yoshlarning mehnatga kreativ-konstruktiv munosabati "qadriyat – kompetensiya – kreativ faoliyat – ijtimoiy foyda – mas'uliyat" birligi sifatida shakllantirilishi maqsadga muvofiq.

O'zbekistonning demografik dinamikasi va mehnat bozoriga kirib kelayotgan yoshlar sonining ortishi masalani strategik darajaga olib chiqadi. Bandlik imkoniyatlarini kengaytirish bilan bir qatorda ta'lim va kasbiy tayyorgarlikni o'zgarayotgan iqtisodiy talablar bilan uyg'unlashtirish, yoshlarni AI bilan hamkorlikda ishlash, tanqidiy fikrlash, uzluksiz o'rganish va ijtimoiy mas'uliyatga yo'naltirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Mehnat bozori: rasmiy statistik ko'rsatkichlar. – Toshkent, 2026.
2. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekiston aholisining 56 foizi mehnatga layoqatli. – 14.08.2025.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Prezident yoshlar bilan samimiy muloqot qildi. – Toshkent, 14.02.2025.
4. Bell D. The Coming of Post-Industrial Society: A Venture in Social Forecasting. – New York: Basic Books, 1973. – P. 14–33, 116–127.
5. Toffler A. The Third Wave. – New York: William Morrow and Company, 1980. – P. 25–28, 182–210.
6. Masuda Y. The Information Society as Post-Industrial Society. – Washington, D.C.: World Future Society, 1981. – P. 29–33, 65–74.
7. Giddens A. The Consequences of Modernity. – Stanford: Stanford University Press, 1990. – P. 36–45.
8. Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi (Aksiologiya). – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2004. – 196 b.
9. Erkayev A. Ma'naviyatshunoslik. Ma'naviyat metodologiyasi va praksiologiyasi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2018. – 456 b.
10. Otamuratov S. Globallashuv: millatni asrash mas'uliyati. – Toshkent: O'zbekiston, 2018. – 352 b.
11. Шермухамедова Н.А. Илмий тадқиқот методологияси. – Тошкент: Innovatsiya-Ziyo, 2021. – 455 б.
12. World Economic Forum. The Future of Jobs Report 2025. – Geneva: World Economic Forum, 2025.
13. International Labour Organization. Artificial Intelligence Adoption and Its Impact on Jobs. – Geneva: ILO, 2025.